

**O‘zbekiston Respublikasi
Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi**

***Mehmonxona va turizmni boshqarish*
bakalavriat ta’lim yo‘nalishining davlat ta’lim talablari**

Qo‘qon - 2021

SO‘Z BOSHI

1. ISHLAB CHIQLIGAN VA KIRITILGAN:

- O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi;
- Qo‘qon universiteti.

2. TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi huzuridagi Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2021 yil «26» fevral dagi 1 - sonli yig‘ilishida ma‘qullangan.

3. JORIY ETILGAN:

Qo‘qon universiteti.

Mazkur davlat ta‘lim talablarini O‘zbekiston Respublikasi hududida rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r	bet
1. Mehmonxona va turizmni boshqarish bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi.....	4
1.1. Qo'llanish sohasi.....	4
1.2. <i>Mehmonxona va turizmni boshqarish</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....	4
2. Mehmonxona va turizmni boshqarish ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan umumiy talablar.....	6
2.1. Bakalavrlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan umumiy talablar.....	6
2.2. <i>Mehmonxona va turizmni boshqarish</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy faoliyatlariga qo'yiladigan davlat ta'lim talablari.....	6
3. Mehmonxona va turizmni boshqarish bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasi va fan dasturi (sillabus)lari mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablar.....	8
3.1. O'quv reja fanlari bloklari mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablar.....	9
3.2. <i>Mehmonxona va turizmni boshqarish</i> bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasidagi yuklama hajmi.....	9
Bibliografik ma'lumotlar.....	11

1. *Mehmonxona va turizmni boshqarish* bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi

Mehmonxona va turizmni boshqarish ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi oliy ta'limning kredit tizimi (ECTS) asosida ta'lim berishga yo'naltirilgan o'quv reja va fan dasturi (sillabus) asosida amalga oshiriladi, uning nazariy va amaliy mashg'ulotlarini to'liq o'zlashtirgan, belgilangan miqdordagi kreditni olgan (240 kredit, GPA 2 va undan yuqori) shaxsga «bakalavr» malakasi (darajasi) hamda oliy ma'lumot to'g'risidagi davlat namunasidagi rasmiy hujjat(lar) beriladi.

O'quv reja va fan dasturi (sillabus)da ko'zda tutilgan o'quv shakli, me'yoriy muddati va unga muvofiq mos malaka darajasi 1- jadvalda keltirilgan.

1-jadval

O'quv reja va fan dasturi (sillabus)ning muddati va bitiruvchilarning malaka(daraja)si

O'quv reja va fan dasturi (sillabus)ining nomi	Malaka (daraja)	O'quv reja va fan dasturi (sillabus)ni o'zlashtirishning me'yoriy muddati
Bakalavriat ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi va fan dasturi (sillabus) lari	Bakalavr	4 yil (240 kredit, GPA 2 va undan yuqori)

1.1. Qo'llanish sohasi

1.1.1. Oliy ta'limning ushbu davlat ta'lim talabi *Mehmonxona va turizmni boshqarish ta'lim* yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotli bakalavrlar tayyorlash o'quv reja va fan dasturi (sillabus)larining o'zlashtirilishini amalga oshirishda Qo'qon universiteti nodavlat oliy ta'lim muassasasi (keyingi o'rinlarda - Qo'qon universiteti) uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Qo'qon universiteti *Mehmonxona va turizmni boshqarish bakalavriat ta'lim* ta'lim yo'nalishi bo'yicha kadrlar tayyorlashda mazkur davlat ta'lim talabi asosida o'quv reja va fan dasturi (sillabus)larni ishlab chiqish va nashr etish huquqiga ega.

1.1.3. Davlat ta'lim talabining asosiy foydalanuvchilari:

– mazkur ta'lim yo'nalish bo'yicha fan, texnika va ijtimoiy soha yutuqlarini hisobga olgan holda o'quv reja va fan dasturi (sillabus)larini sifatli ishlab chiqish, samarali amalga oshirish va yangilash uchun mas'ul Qo'qon universiteti ning professor - o'qituvchilari;

– ta'lim yo'nalishining o'quv reja va fan dasturi (sillabus)larini o'zlashtirish bo'yicha o'quv hamda tarbiya faoliyatini samarali amalga oshiruvchi barcha xodimlari va talabalari;

– o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan Qo'qon universiteti ning boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, akademik departament boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari);

– bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi iste'molchi korxonalar va tashkilotlar;

– Qo'qon universiteti ni moliyalashtirishni ta'minlovchi ta'asischilar;

– oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli Davlat organlari;

– ta'lim yo'nalishini ixtiyoriy tanlash huquqiga ega bo'lgan talabalar va boshqa manfaatdorlar.

1.2. *Mehmonxona va turizmni boshqarish ta'lim* yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi

1.2.1. *Mehmonxona va turizmni boshqarish ta'lim* yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari:

Mehmonxona va turizmni boshqarish bakalavriat ta'lim ta'lim yo'nalishi – fan va turizm sohasidagi ta'lim yo'nalishi bulib, turizm sohasida kinik biznes va xususiy tadbirkorlikni tashkil etishning xuquqiy-me'yoriy asoslarini takomillashtirish, kinik biznes sub'ektlarini tizimli taxlil qilish va rivojlantirishga karatilgan ilmiy tadqiqot faoliyatini olib borish;

– korxonalarda tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish, rejalashtirish, tashkiliy boshqaruv tarkibini shakllantirish, biznes strategiyasini tahlil qilish, qayta ishlash va amalga oshirish, maxsulot va xizmatlarni reklama qilish, marketing tadqiqotlarini o‘tkazish;

– Mehmonxona va turizm korxonalarida xizmat ko‘rsatish faoliyatini tashkil etish, xizmatlar bozorini segmentlash, mehmonxona va turizm mahsulot iste‘molchilari xulq-atvorini o‘rganish, mehmonxona va turizm korxonalar faoliyatini boshqarish, mehmonxona va turizm sohasidagi xizmat ko‘rsatish korxonalarining raqobatbardoshlik holatini tahlil qilish, mehmonxona va turizm korxonalar dasturini tuzish, turli mulkchilik shaklidagi mehmonxona, turistik va xizmat ko‘rsatish korxonalar faoliyatini rivojlantirish, yangi tovar va xizmatlarni bozorga kiritish hamda kichik biznes sub‘ektlarining tashqi bozorga chiqishga yo‘naltirilgan usul va vositalar majmuini qamrab oladi;

– Mehmonxona xo‘jaligi va turizm xizmat ko‘rsatish jarayonlarida matematik modellarni qo‘llash;

– Mehmonxona xo‘jaligi va turizm axborot texnologiyalaridan foydalanish va tashkil etish;

Yo‘nalish bo‘yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chikkan uolda bakapavrlarning kasbiy faoliyat sohalarida qo‘shimcha va o‘zgarishlar Bo‘lishi mumkin. Bo‘lishi mumkin bo‘lgan qo‘shimcha va uzgarshilar muayyan talim yunalshiilarining malaka talablari va o‘quv rejalarini ishlab chuyishda xisobga olinishi nazarda tutiladi.

1.2.2. Mehmonxona va turizmni boshqarish ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob‘ektlari:

– davlat va xususiy turistik korxonalar;

– Mehmonxona komplekslari;

– sog‘lomlashtiruvchi maskanlar va ular bilan boglik joylashtirish vositalari;

– Mehmonxona xo‘jaligiga oid barcha turdagi korxonalar, turistlarni analogik joylashtirish vositalari, shuningdek, milliy va xorijiy turistlarga xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar va tashkilotlar;

– xalqaro turizm bozoridagi jarayonlar majmuasi;

– turizm va Mehmonxona biznesining boshqaruv tizimi xisoblanadi;

– turizmga oid ilmiy tadqiqot tashkilotlari, turizm soxasida davlat boshqaruv tizimi xisoblanadi.

Yo‘nalish bo‘yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda, bakalavrlarning kasbiy faoliyat ob‘ektlarida qo‘shimcha va o‘zgarishlar bo‘lishi mumkin. Bo‘lishi mumkin bo‘lgan qo‘shimcha va o‘zgarishlar muayyan talim yo‘nalishilarining malaka talablari va o‘quv rejalarini ishlab chiqishda hisobga olinishi nazarda tutiladi.

Mehmonxona va turizmni boshqarish ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy faoliyati quyidagilarni qamrab oladi:

– mehmonxona va turizm sohasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va rivojlantirish;

– mehmonxona va turizm xizmatlar sohasi faoliyatining me‘yoriy xuquqiy asoslarini tahlil qilish va tatbiq etish;

– mehmonxona va turizm faoliyatini rivojlantirishda strategik boshqaruv modellarini tatbiq etish;

– mehmonxona va turizm xizmat ko‘rsatish korxonalarining tashkiliy boshqaruv strukturasi ishlab chiqish;

– mehmonxona va turizm xizmat ko‘rsatish korxonalar faoliyatini iqtisodiy tahlil etish;

– mehmonxona va turizm sohasidagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub‘ektlariga moliyaviy resurslarni jalb etish;

– mehmonxona va turizm sohasidagi ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish korxonalar faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha biznes rejalarini ishlab chiqish;

– mehmonxona va turizm xizmat ko‘rsatish korxonalarini rivojlantirishda innovatsion faoliyatni tashkil etish;

– mehmonxona va turizm xizmatlari bozorida tadbirkorlik faoliyati samaradorligini aniqlash va oshirish;

– mehmonxona va turizm xizmat ko'rsatish sohasini boshqarishda tizimli yondoshuv mexanizmlarini tatbiq etish;

– yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual xamda nazariy modellarini ishlab chiqish, ilmiy-tadqiqot natijalari bo'yicha tavsiyalar va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etish.

1.2.3. Mehmonxona va turizmni boshqarish ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari

- tashkiliy-boiinqaruv;
- ishlab chiqarish-texnologik;
- ilmiy-tadkkot;
- loyixa-texnologik;
- servis xizmatini ko'rsatish (agrotexnik tadbirlar bo'yicha maslahatlar berish);

Yo'nalish bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat turlarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin.

Bakalavr tayyorlanadigan kasbiy faoliyatning muayyan turlari ta'lim jarayonining manfaatdor ishtirokchilari bilan xamkorlikda oliy ta'lim muassasasi tomonidan aniklanadi.

1.2.4. Ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy moslashuv imkoniyatlari

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr pedagogik qayta tayyorlashdan o'tgandan so'ng o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarida maxsus fanlarni o'qitishi mumkin.

1.2.5. Ta'limni davom ettirish imkoniyatlari

Mehmonxona va turizmni boshqarish ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr kasbiy tayyorgarlikdan keyin 5A610201 - Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish, 5A610301 - Turizm (faoliyat turlari bo'yicha) va O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan turdosh bakalavriat ta'lim yo'nalishlari negizida magistratura mutaxassisliklari bo'yicha ikki yildan kam bo'lmagan muddatda o'qishni davom ettirishi mumkin.

Shuningdek, o'rnatilgan tartibda mustaqil tadqiqotchilik asosida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishi mumkin.

2. Mehmonxona va turizmni boshqarish ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan umumiy talablar

2.1. Bakalavrlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan umumiy talablar:

Bakalavr:

– fuqarolik jamiyatining dolzarb masalalarini bilishi, O'zbekiston rivojlantirish strategiyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo'lishi;

– dunyoqarash bilan bog'liq falsafiy bilimlarga tizimli ega bo'lishi, mustaqil tahlil qila olishi, kasbiy faoliyatida ularni hisobga ola bilishi;

– xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid xujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda xayotda va o'z kasb faoliyatida foydalana bilishi;

– axborot yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, o'z kasbiy faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi;

– tegishli bakalavriat yo'nalishi bo'yicha raqobatbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi;

– yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;

– sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida ilmiy tassavvur hamda e'tiqodga, o'zini jismoniy chiniqtirish o'qquv va ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim;

2.2. Mehmonxona va turizmni boshqarish ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy faoliyatlariga qo'yiladigan davlat ta'lim talablari

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatda:

– mehmonxona va turizm xizmat ko'rsatish faoliyati sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va tatbiq etish;

– mehmonxona va turizm xizmat ko'rsatish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan

resurslarini rejalashtirish;

- zamonaviy axborot texnologiyalar tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan xizmat ko'rsatish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash metodlari va mexanizmlarini ishlab chiqish;

- atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida xizmat ko'rsatish jarayonlarini nazorat qilish;

- mehmonxona va turizm xizmat ko'rsatish sohasida menejment-marketing tadqiqotlari yechimlarini amaliyotga tatbiq etish;

- xizmat ko'rsatish jarayonlarini boshqarish;

- fikrlar har xil bo'lgan sharoitda boshqaruv qarorini qabul qilish;

- mehmonxona va turizm xizmat ko'rsatish korxonalarini ishini tashkil qilish va uni boshqarish;

- bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirgan ishining natijalarini baholash;

xizmat ko'rsatish jarayonlarining atrof-muhit muhofazasi, yong'in, texnika va mehnat xavfsizligi talablariga mosligini monitoring qilish **qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.**

Ilmiy tadqiqot faoliyatida:

- mehmonxona va turizm xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarida tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishda qatnashish;

- ilmiy ish hisoboti uchun ma'lumotlar tayyorlash;

- berilgan mavzu bo'yicha axborotlarni to'plash, ishlov berish, tahlil qilish va tizimlashtirishda ishtirok etish;

- qaror qabul qilish, bilimlarni amaliyotda qo'llash, ish samaradorligi va sifatiga javob berish;

- mamlakatimiz va xorijiy davlatlarda mehmonxona va turizm xizmat ko'rsatish sohasida erishilgan fan-texnika yutuqlari, maxsus adabiyotlar va boshqa ilmiy-texnik axborotlarni o'rganish;

- mavzu bo'yicha turizm sohasidagi iqtisodiy axborotlarni to'plash, qayta ishlash, tahlil qilish va tizimlashtirish ishlarini amalga oshirish;

- internet tarmog'idan turizm va xizmat ko'rsatish sohasidagi eng yangi fan-texnika yutuqlari haqidagi ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish;

ilmiy tadqiqot natijalari va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishda ishtirok etish **qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.**

Loyihani ishlab chiqish va tashkil faoliyatida:

- loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish;

- mehmonxona va turizm korxonalarini biznes-rejasini ishlab chiqish;

- mehmonxona va turizm xizmat ko'rsatish korxonalarini faoliyatini tahlil qilish;

- amaliyotda axborot texnologiyalarining xalqaro va kasbiy standartlarini qo'llash;

- mehmonxona va turizm xizmat ko'rsatish sub'ektlarini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish;

- mehmonxona va turizm mahsulotlari va yo'nalishlarning texnologik kartasini ishlab chiqish;

- ixtisoslikdan kelib chiqqan holda mahsulotlar sifatini baholashda chet el va vatanimizda qo'llanilayotgan usullarni amalda qo'llay olish;

- loyihalashtirishda zamonaviy axborot-kommunikatsion, informatika va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish **qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.**

Servis xizmat ko'rsatishda:

- xizmat ko'rsatish sohasida me'yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalana olish;

- mehmonxona va turizm mahsulotlarini ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish bo'yicha ishlarni rejalashtirish va bajarish;

- mehmonxona va turizm xizmat ko'rsatish korxonalarida menejmentini tashkil etish;

- boshqarishning namunaviy texnologik jarayonlarini ishlab chiqish va qo'llash;

- mehmonxona va turizm xizmat ko'rsatish korxonalarida mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish bo'yicha ishlarni tashkillashtirish, rejalashtirish va bajarish;

- mehmonxona va turizm xizmat ko'rsatish korxonalarida tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish;

- mehmonxona va turizm xizmat ko'rsatish sohasiga moliyaviy resurslarni jalb etish;
- mehmonxona va turizm korxonalarini faoliyatini rejalashtirish va bashorat qilish;
- bajarilayotgan nazariy va amaliy ishlar mavzusi bo'yicha matematik, informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqish va taxlil qilish;
- mehmonxona va turizm sohasida zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuter texnikalari va kommunikatsion vositalarni amaliyotda keng qo'llash;
- ilg'or texnologik jarayonlardan foydalanish;
- mehmonxona va turizmni boshqarishning ilmiy asoslangan tizimlarni qo'llash va tavsiya qilish;
- yangi samarali texnologiyalardan mehmonxona va turizm sohasida oqilona foydalanish;
- tabiiy resurslarni muhofaza qilish va hayot faoliyati xafsizligi qoidalariga rioya qilish;
- mehmonxona va turizm xizmat ko'rsatish korxonalarida menejment tamoyillarini qo'llash;
- mehmonxona va turizm sohasi uchun servis xizmati ko'rsata olish *qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.*

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

- ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda ta'lim yo'nalishlaridagi fanlar va ularni o'qitish metodikasiga oid mavzularda tadqiqot olib borish;
- tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalarda ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirishga qatnashish;
- tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalariga tegishli mamlakatdagi va xorijiy davlatlardagi fan-texnika yutuqlari, maxsus adabiyotlar va boshqa ilmiy-texnik axborotlarni o'rganish;
- tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalaridagi muammolar mavzulari bo'yicha iqtisodiy axborotlarni yig'ish, qayta ishlash, tahlil qilish va tizimlashtirish ishlarini amalga oshirish;
- internet tarmog'ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;
- ta'lim yo'nalishlaridagi fanlarga oid ilmiy to'plamlar, mahalliy va chet el ilmiy tadqiqot yutuqlarini o'rganish;
- ilmiy tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;
- ma'lumotlarni jamlaydi, qayta tayyorlaydi, mavzu bo'yicha ilmiy ma'lumotlarni tizimli tahlil qilish;
- tadqiqot natijalari va ishlanmalarini tatbiq etish;
- ilmiy muammolar yechimi natijalarini amaliyotga joriy etish *qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.*

3. Mehmonxona va turizmni boshqarish bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasi va fan dasturi (sillabus)lari mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablar

Mehmonxona va turizmni boshqarish bakalavriat ta'lim ta'lim yo'nalishi o'quv rejasi va fanlar dasturlari umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi bilan uzluksizlik va uzviylik ta'minlanishini inobatga olgan holda, ishlab chiqilishi va talabalarning quyidagi majburiy fanlar bloklarini o'zlashtirishini nazarda tutishi zarur:

- asosiy fanlar;
- umumiy tanlov fanlari;
- tanlov fanlar.

Kasb faoliyati ko'nikmalarini egallash uchun malaka amaliyotlari o'tilishi nazarda tutilishi shart.

O'quv rejalar majburiy o'quv fanlari bilan bir qatorda kadrlar buyurtmachilari tomonidan taklif etilgan va talabalar tanlagan fanlarni ham o'z ichiga olishi shart.

Bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasi va fanlar dasturlari (sillabuslar) ni o'zlashtirishda talabalarning o'quv fanlariga oid bir qancha masalalar va muammolar bo'yicha mustaqil bilim olishi nazarda tutilishi lozim.

O'quv rejaga kiritiladigan ixtisoslikka oid fanlarning amaliy mashg'ulotlari Qo'qon universiteti hamda bazaviy tashkilot va korxonalarda o'tkazilishi mumkin.

Nazariya va amaliyot yaxlitligini ta'minlash uchun talabalarning malakaviy amaliyotlari va ixtiyoriy stajirovkalari bazaviy tashkilot va korxonalarda o'tkaziladi.

Bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasiga muvofiq 240 kredit (GPA 2 va undan yuqori bo'lganida) tugallanishi shart.

3.1. O'quv reja fanlari bloklari mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablar

Majburiy fanlar bloki bo'yicha:

tegishli bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha maxsus bilimlarni, kasb faoliyati ko'nikmalarini va o'quvlarini shakllantirish;

ta'lim yo'nalishi ixtisoslik fanlarni o'rganish va chuqur egallash uchun zarur fundamental umumkasbiy bilimlarni, amaliy ko'nikma va uquvlarni shakllantirish;

ta'lim yo'nalishiga muvofiq kasb faoliyati sohasida erishilgan asosiy yutuqlar, muammolar va ularning rivojlanish istiqbollari haqida tasavvur hosil qilish;

iqtisodiy g'oyalarning asosiy oqimlari evolyusiyasining xususiyatlari va tendensiyalari, milliy iqtisodiyot va uning makroiqtisodiy o'lchamlari, iqtisodiy salohiyatdan samarali foydalanish muammolari yuzasidan nazariy xulosalar chiqarish;

statistika amaliyotida qo'llaniladigan iqtisodiy ko'rsatkichlardan foydalanish;

mehnatni tashkil etishi, mehnat bozorini rivojlantirish va tartibga solishi hamda aholi bandligini ta'minlash;

jahon xo'jaligi va xalqaro iqtisodiy munosabatlar sohasida ma'lumotlar to'plash, va ularning sifatini baholashni bilishi;

rejalashtirish, tashkil etish, motivatsiyalash va muvofiqlashtirish, bozor holati haqida axborot to'plash va qayta ishlash, pul, kredit, qimmatli qog'ozlar, moliya bozorlari faoliyati ko'rsatkichlarini tahlil qilish ko'nikmalariga ega bo'lish;

xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning mablag'lari, ularning tashkil topish manbalari va ularning iqtisodiy salohiyatini baholash;

budjet-soliq siyosatining tarkibi, uning ishlab chiqilishi, amalga oshirilishi va asosiy yo'nalishlari, investitsiyalarni jalb etish va baholashning strategik va taktik usullari haqida tasavvurga ega bo'lish;

aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimidagi institutlar faoliyati va uni tashkil etish;

ish joyini rejalashtirish, loyihalashtirish va tashkil etishga qo'yiladigan asosiy talablarni bilish;

mehnatni muhofaza qilish vositalarini yaratish va ishlab chiqarishdan korxonalarining iqtisodiy manfaatdorligini ta'minlash;

mehmonxona va turizm bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha maxsus bilimlarni, kasb faoliyati ko'nikmalari va uquvlarini shakllantirishi;

mehmonxona va turizm bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy faoliyatiga muvofiq butun jahon va mamlakatimizda sohadagi mavjud muammolar, erishilgan yutuqlar va sohani rivojlantirish istiqbollari haqida tassavur hosil qilishi;

mehmonxona va turizm xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlikni tashkil etish, davlat ro'yxatidan o'tkazish, biznes reja tuzish, moliyaviy manbalarni jalb etish va tadbirkorlik subektlarini iqtisodiy tahlil qilish;

mehmonxona va turizm bozori kon'yukturasi va uning ishlash mexanizmini aniqlashi, xizmat ko'rsatish sohasi uchun ajratilgan mablag'lardan foydalanish samaradorligini hisoblashi, itt vaqti fondini tuzish va undan foydalanishni iqtisodiy tahlil qilishi;

ta'lim yo'nalishi negizidagi muayyan magistratura mutaxassisligi bo'yicha kelgusida ta'limni davom ettirishga ongli munosabatda bo'lishiga ko'maklashishi lozim

Tanlov fanlari bo'yicha:

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda tanlov fanlarining tarkibi va ularning mazmuniga qo'yilgan talablar Qo'qon universiteti Kengashi tomonidan belgilanadi.

3.2. *Mehmonxona va turizmni boshqarish bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasidagi yuklama hajmi*

Barcha turdagi auditoriya va auditoriyadan tashqari o'quv ishlarini o'z ichiga olgan o'quv yuklamasining eng yuqori hajmi haftasiga 36 soat qilib belgilanadi. Ishlab chiqarishdan ajralgan holda (kunduzgi) o'qish shakli uchun auditoriya mashg'ulotlarining eng yuqori hajmi haftasiga 30 soatgacha qilib belgilanishi mumkin.

O'qishning me'yoriy muddati to'rt yil bo'lgani holda o'quv jarayoni o'rtacha 140-150 hafta davom etishi zarur.

Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OXS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat ob'ekti, kasbiy faoliyat jabhasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va fan dasturi (sillabus), profil, o'qib-o'rganish natijalari, o'quv davri, Mehmonxona va turizmni boshqarish, tarmoqlar va sohalar, tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalar, industrial tarmoqlari, korxonalar faoliyati, ishlab chiqarish texnologiyasi, ishlab chiqarishni texnologik asoslari, ishlab chiqarishni rejalashtirish va loyihalashtirish, ishlab chiqarish xarajatlari, modernizatsiya, samaradorlik, raqobatbardoshlik.

Mehmonxona va turizmni boshqarish yoʻnalishi boʻyicha oʻquv rejasining tuzilishi

№	№	Fanlar	Fan nomi, ingliz tilida	Kod	Kredit	Umumiy soat	Auditoriya soati	Mustaqil ta'lim soati
1-semestr								
1	1	Turizm asoslari	Tourism Fundamentals	TourFun M 106	6	180	72	108
2	2	Iqtisodiyot	Economics	Econ M 106	6	180	72	108
3	3	Yozish va taqdimot qilish koʻnikmalari	Writing and Presentation Skills	WritPres M 106	6	180	72	108
4	4	Turizm geografiyasi va iqtisodiyoti	Tourism Geography and Economy	TourGeog M 106	6	180	72	108
5	5	Ingliz tili	English	English M 103	3	90	36	54
6	6	Rus tili	Russian	Russian M 103	3	90	36	54
		JAMI			30	900	360	540
2-semestr								
7	1	Turizm menejmenti	Tourism Management	TourMan M 106	6	180	72	108
8	2	Axborot kommunikatsiya texnologiyalari	Information Communication Technologies	InfTech M 106	6	180	72	108
9	3	Turizm marketing	Tourism Marketing	TourMar M 106	6	180	72	108
10	4	Menejment asoslari*	Management Fundamentals	ManFun E 106	6	180	72	108
11	5	Ingliz tili	English	English M 103	3	90	36	54
12	6	Rus tili	Russian	Russian M 103	3	90	36	54
		Tanlov fanlar						
	1	Logistika*	Logistics	Logist E 106	6	180	72	108
		JAMI			30	900	360	540
3-semestr								
13	1	Mehmonxona boshqaruvi dasturiy taʼminoti	Hotel Management Software	HotSoft M 206	6	180	72	108
14	2	Mahsulot va xizmatlarni boshqarish	Product and Services Management	ProdSer M 206	6	180	72	108
15	3	Statistika*	Statistics	Stat E 206	6	180	72	108
16	4	Raqamli iqtisodiyot	Digital Economy	DigEcon M 206	6	180	72	108
17	5	Kasbga yoʻnaltirilgan ingliz tili**	Profession-oriented English	ProfEng E 203	3	90	36	54
18	6	Kasbga yoʻnaltirilgan rus tili**	Profession-oriented Russian	ProfRus E 203	3	90	36	54
		Tanlov fanlar						
	1	Moliya bozorlari va institutlari*	Financial Markets and Institutions	FinMar E 206	6	180	72	108
	2	Makroiqtisodiyot*	Macroeconomics	MacEcon E 206	6	180	72	108
	3	Biznes kommunikatsiya*	Business Communication	BusCom E 206	6	180	72	108
	4	Nemis tili**	German	German E 203	3	90	36	54
	5	Fransuz tili**	French	French E 203	3	90	36	54
	6	Koreys tili**	Korean	Korean E 203	3	90	36	54
		JAMI			30	900	360	540
4-semestr								
19	1	Oziq-ovqat va ichimlik mahsulotlari xizmatlari	Food and Beverage Services	FoodBev M 206	6	180	72	108
20	2	Front Office boshqaruvi	Front Office Management	FronMan M 206	6	180	72	108


21	3	Mehmondo'stlik sanoatida xodimlar bo'limini boshqarish	Human Resources Management in Hospitality Industry	HumRes M 206	6	180	72	108
22	4	Mehmonxona dizayni*	Hotel Design	HotDes E 206	6	180	72	108
23	5	Kasbga yo'naltirilgan ingliz tili **	Profession-oriented English	ProfEng E 203	3	90	36	54
24	6	Kasbga yo'naltirilgan rus tili**	Profession-oriented Russian	ProfRus E 203	3	90	36	54
		Tanlov fanlar						
	1	Bank ishi*	Banking	Bank E 206	6	180	72	108
	2	Soliq va soliqla tortish*	Tax and Taxation	Tax E 206	6	180	72	108
	3	Nemis tili**	German	German E 203	3	90	36	54
	4	Fransuz tili**	French	French E 203	3	90	36	54
	5	Koreys tili**	Korean	Korean E 203	3	90	36	54
		JAMI			30	900	360	540
5-semestr								
25	1	Turizmda biznes qoidalari	Business Rules in Tourism	RuleTour M 306	6	180	72	108
26	2	Madaniy turizm	Cultural Tourism	CulTour M 306	6	180	72	108
28	3	Investitsiyalar*	Invesments	Invest E 306	6	180	72	108
29	4	Mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish*	Customer Relationship Management	CusRelat E 306	6	180	72	108
30	5	Biznes psixologiya**	Business Psychology	BusPsy E 303	3	90	36	54
31	6	Kasbga yo'naltirilgan ingliz tili **	Profession-oriented English	ProfEng E 303	3	90	36	54
		Tanlov fanlar						
	1	Korporativ moliya*	Corporate Finance	CorpFin E 306	6	180	72	108
	2	Operatsion menejment*	Operations Management	OperMan E 306	6	180	72	108
	3	Biznes konsalting**	Business Consulting	BusCon E 303	3	90	36	54
	4	Kasbga yo'naltirilgan nemis tili**	Profession-oriented German	ProfGer E 303	3	90	36	54
	5	Kasbga yo'naltirilgan fransuz tili**	Profession-oriented French	ProfFren E 303	3	90	36	54
		JAMI			30	900	360	540
6-semestr								
31	1	Sifat boshqaruvi*	Quality Management	QualMan E 306	6	180	72	108
32	2	Turizm va transport	Tourism and Transportation	TourTran M 306	6	180	72	108
33	3	Global turizm	Global Tourism	GlobTour M 306	6	180	72	108
34	4	Restoran biznesi	Restaurant Business	RestBus M 306	6	180	72	108
35	5	Kasbga yo'naltirilgan ingliz tili**	Profession-oriented English	ProfEng E 303	3	90	36	54
36	6	Notiqlik san'ati va liderlik**	Public Speaking and Leadership	PubLead E 303	3	90	36	54
		Tanlov fanlar						
	1	Xalqaro biznes*	International Business	IntBus E 306	6	180	72	108
	2	Elektron tijorat*	E-commerce	E-Com E 306	6	180	72	108
	3	Kasbga yo'naltirilgan fransuz tili**	Profession-oriented French	ProfFren E 303	3	90	36	54
	4	Kasbga yo'naltirilgan nemis tili**	Profession-oriented German	ProfGer E 303	3	90	36	54
	5	Sotsiologiya**	Sociology	Socio E 303	3	90	36	54

	6	Falsafa**	Philosophy	Philos E 303	3	90	36	54
		JAMI			30	900	360	540
7-semestr								
37	1	Tadqiqot metodlari	Research Methods	ResMeth M 406	6	180	72	108
38	2	Sayyohlik agentliklarini tashkil etish va boshqarish	Tour Agencies Organization and Management	TourAgen M 406	6	180	72	108
39	3	MICE boshqaruvi	MICE Management	MICE M 406	6	180	72	108
40	4	Loyiha boshqaruvi*	Project Management	ProjMan E 406	6	180	72	108
41	5	Amaliyot	Internship	Intern M 406	6	180		180
		Tanlov fanlar						
	1	Risklarni boshqarish*	Risk Management	RiskMan E 406	6	180	72	108
	2	Sug'urta ishi*	Insurance	Insur E 406	6	180	72	108
		JAMI			30	900	288	612
8-semestr								
42	1	Brendni boshqarish	Brand Management	BrandMan M 475	7,5	225	90	135
43	2	Ma'lumotlar tahlili	Data Science	DatSci M 475	7,5	225	90	135
44	3	Biznes huquqi	Business Law	BusLaw M 475	7,5	225	90	135
45	4	Yakuniy loyiha ishi	Final Project	FinProj M 475	7,5	225	90	225
		JAMI			30	900	270	630
		JAMI:			240	7200	2718	4482

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari xamda kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQILGAN:

Qo'qon universiteti rektori




Sh. Mustafakulov

202__ «__»

M.O'.

O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi boshqarma boshlig'i




A. Eshtayev

202__ «__»

M.O'.

KELISHILGAN

Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarini tatbiq etish markazi direktori Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori



Z. Xakimov




K.A. Sharipov

202__ «__»



“Mehmonxona va turizmni boshqarish bakalavriat” bakalavriat ta’lim yo’nalishi uchun yangidan yaratilgan davlat ta’lim talablariga kiritilgan kadrlar iste’molchilarining ta’lim yo’nalishi bitiruvchilari kasbiy faoliyatiga qo’yiladigan umumiy davlat ta’lim talablarini (kasbiy kompetentlik talablari)

№	Vazirlik (idora)ning tashkilot (korxonalar) uchun kadr tayyorlanayotgan bakalavriat ta’lim yo’nalishlari nomi	Vazirlik (idora)ning ta’lim yo’nalishi bitiruvchilari kasbiy faoliyati glariga qo’yiladigan umumiy davlat ta’lim talablari (kasbiy kompetentlik talablari)
1	Mehmonxona va turizmni boshqarish bakalavriat	<ul style="list-style-type: none"> - dunyoqarash bilan bog’liq tizimli bilimlarga ega bo’lishi, gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar asoslarini, joriy davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olishi; - milliy ma’naviy va umuminsoniy qadriyatlar, madaniyatlararo aloqalar masalalari yuzasidan o’z fikrini bayon qila olishi va ilmiy asoslay bilishi, iqtisodiy bilimlar nazariya va amaliyotiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo’lishi; - Mehmonxona va turizmni axborotlashtirish, xizmat ko’rsatishga axborot texnologiyalarini IoT, BigData tizimlarini joriy etish hisobiga raqamlashtirish va blokcheyinni qo’llash usullari haqida maxsus tasavvur va bilimlarga ega bo’lishi; - global turizm, uni rivojlanishi, jahon xo’jaligini o’zgarish tendensiyalari hamda barcha bozorlardagi ishtirokchilarning harakatlarini anglashi va tahlil qila olishi; - insonning boshqa insonga, jamiyatga va atrof muhitga munosabatini belgilovchi huquqiy mezonlarni bilishi, kasb faoliyatida ularni hisobga olib bilishi; - axborot yig’ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo’lishi, o’z kasb faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi; - tegishli bakalavriat yo’nalishi bo’yicha raqobatchilik umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo’lishi; <p>yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o’z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi lozim.</p>




Qo‘qon universiteti Akademik ishlar bo‘yicha prorektori O.R. Sheraliyev



O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi boshqarma boshlig‘i A. Eshtayev

Qo‘qon universiteti nodavlat oliy ta‘lim muassasining “Mehmonxona va turizmni boshqarish bakalavriat” bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha davlat ta‘lim talablari va o‘quv rejalarini ishlab chiquvchilar hamda kadrlar iste‘molchilari o‘rtasida

KELISHUV DALOLATNOMASI

Qo‘qon shahri

20__ yil _____

O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi boshqarma boshlig‘i A.Eshtayev va Qo‘qon universiteti Akademik ishlar bo‘yicha prorektori O.Sheraliev mazkur kelishuv dalolatnomasini quyidagilar haqida tuzdik:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrdagi “Ta‘lim to‘g‘risidagi” O‘RQ-637-son Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-son Farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-son Qarori bilan tasdiqlangan “2017-2021 yillarda Oliy ta‘lim tizimini kompleks rivojlantirish chora-tadbirlar Dasturi ijrosini ta‘minlash bo‘yicha Oliy va o‘rta maxsus-ta‘lim vazirligi Dasturi”ning III qismi hamda 2017 yil 27 iyuldagi “Oliy ma‘lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqqisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” PQ-3151-sonli, 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning, mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 3775-sonli, 2019 yil 18 avgustdagi “Qo‘qon universiteti faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 683-sonli Qarorlarida hamda Vazirlikning 2017 yil 6 maydagi 294-sonli, 30 maydagi 356-sonli, 19 iyundagi 407-sonli buyruqlari ijrosini ta‘minlash maksadida Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi huzuridagi Oliy ta‘limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg‘or texnologiyalarini tatbiq etish markazi, Qo‘qon universiteti, turdosh oliy ta‘lim muassasalari hamda tegishli soha va tarmoqlar bo‘yicha kadr iste‘molchilari bilan birgalikda tashkil qilingan ishchi-guruhlar tomonidan “Oliy ta‘lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari Klassifikatori”ga muvofiq ishlab chiqilgan ta‘lim yo‘nalishlarining davlat ta‘lim talablari va o‘quv rejalarini ishlab chiqildi.

2. “Mehmonxona va turizmni boshqarish bakalavriat” ta‘lim yo‘nalishining davlat ta‘lim talablari va o‘quv rejalarini ishlab chiqishda turdosh oliy ta‘lim muassasalari - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, Toshkent Moliya instituti, Qo‘qon universiteti professor-o‘qituvchilari hamda ishlab chiqarish mutaxassislari o‘z fikr-mulohazalari bilan ishtirok etganlar.

3. “Mehmonxona va turizmni boshqarish” ta‘lim yo‘nalishi kadrlar

iste'molchisi - O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi mutaxassislari tomonidan mazmunan o'rganildi hamda ularni maromiga yetkazish maqsadida tegishli takliflar bildirildi. Asosiy kadr iste'molchi sifatida O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi mutaxassislari va turdosh OTMlari professor - o'qituvchilarining takliflari "Mehmonxona va turizmni boshqarish" ta'lim yo'nalishlarining davlat ta'lim talablari va o'quv rejalarini mukammallashtirishda inobatga olindi.


Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda mazkur davlat ta'lim talablari va o'quv rejalarini o'quv jarayonlariga tatbiq etish mumkin, deb hisoblaymiz.

**O'zbekiston Respublikasi Turizmni
rivojlantirish davlat qo'mitasi
boshqarma boshlig'i A.Eshtayev**

20__ yil _____

M.O'.

**Qo'qon universiteti Akademik ishlar
bo'yicha prorektori O.Sheraliev**



20__ yil _____

M.O'.

**Qo‘qon universiteti, turdosh oliy ta‘lim muassasalari va kadrlar
iste‘molchilari bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan ta‘lim yo‘nalishlari davlat
ta‘lim talablariga berilgan**

TAQRIZ

Respublikada oliy ta‘lim tizimida olib borilayotgan islohotlar ta‘lim tizimini zamonaviylashtirish, talabalarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish va nazariy bilimlarini amalda samarali qo‘llashga qaratib kelinmoqda. Bu borada, oliy ta‘limda islohotlarni amalga oshirish bo‘yicha ko‘plab huquqiy-me‘yoriy hujjatlar hkam qabul qilib kelinmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyadagi “Ta‘lim to‘g‘risidagi” O‘RQ-637-son Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-son Farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli Qarori, 2017 yil 27 iyuldagi “Oliy ma‘lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” PQ-3151-sonli Qarori, 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 3775-sonli Qarori, 2019 yil 18 avgustdagi “Qo‘qon universiteti faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 683-sonli Qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida Qo‘qon universiteti tomonidan “Oliy ta‘lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari Klassifikatori”ga muvofiq ta‘lim yo‘nalishlari davlat ta‘lim talablari va o‘quv rejaları ishlab chiqildi hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi huzuridagi Oliy ta‘limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg‘or texnologiyalarini tatbiq etish markazi, turdosh oliy ta‘lim muassasalari hamda tegishli soha va tarmoqlar bo‘yicha kadr iste‘molchilari tomonidan kelishildi.

Davlat ta‘lim talablarini ishlab chiqishda “Mehmonxona va turizmni boshqarish” bakalavriat ta‘lim yo‘nalishining umumiy tavsifi, qo‘llanish sohasi, kasbiy faoliyatlarining tavsifi, bakalavrlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan umumiy talablar, ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy faoliyatlariga qo‘yiladigan davlat ta‘lim talablari, ta‘lim yo‘nalishlarining o‘quv rejasi va fan dasturi (sillabus)lari mazmuniga qo‘yiladigan umumiy talablar, o‘quv reja fanlari bloklari mazmuniga qo‘yiladigan umumiy talablar, bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlari o‘quv rejasidagi yuklama hajmi, ilovalar, bibliografik ma‘lumotlar, ishlab chiquvchilar, asosiy turdosh oliy ta‘lim muassasalari hamda kadrlar iste‘molchilari bilan kelishilganligini tasdiqlovchi muhr va imzolar o‘z ifodasini topgan.

“Mehmonxona va turizmni boshqarish” ta‘lim yo‘nalishining davlat ta‘lim talablari va o‘quv rejaları Bolonya kelishuvi asosida ta‘sis etilgan o‘qitishning kredit tizimiga asoslangan bo‘lib, Janubiy Koreyaning ta‘lim tizimidan foydalanilgan. Bunda, fanlar soni optimallashtirilgan bo‘lib, kadrlar buyurtmachilarining talablari va xorijiy tajribalar inobatga olingan holda ishlab chiqilgan. Shunga asosan, bir semestrda eng ko‘pi bilan 6 tagacha fan belgilangan. Talabalarga ta‘lim yo‘nalishi


bo'yicha davlat namunasidagi diplom olish uchun mezon sifatida 240 kredit to'plashi va o'rtacha o'zlashtirish darajasi 2 GPA dan kam bo'lmasligi belgilab olingan.

Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining istiqbollari, jamiyat ehtiyoji, fan, texnika, texnologiya va madaniyat yutuqlari, kadrlar tayyorlash borasida jahon tendensiyalaridan kelib chiqib, iqtisodiyot sohasining modernizatsiyalashuv sharoitida kadrlar iste'molchilarining talablarini oliy ta'lim mazmuniga tezkor joriy etilishiga tegishli sharoitlar yaratish, oliy ta'lim davlat ta'lim standartlarini xalqaro amaliyotdagi akademik standartlar bilan uyg'unlashtirish hamda ularning uzviylikini ta'minlashga asosiy e'tibor qaratilmoqda.

Qo'qon universiteti va hamkorlar bilan birgalikda ishlab chiqilgan "Mehmonxona va turizmni boshqarish" ta'lim yo'nalishining davlat ta'lim talablari va o'quv rejalari ko'rib chiqildi va ular belgilangan me'yor talablariga javob beradi. Ushbu davlat ta'lim talablari oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatoriga mos ravishda iqtisodiyotda olib borilayotgan islohotlardan kelib chiqib, oliy ta'lim muassalarida zamonaviy innovatsion texnologiyalar bo'yicha chuqur bilim hamda amaliy ko'nikmalarni tayyorlanadigan kadrlarga yetkazishga mo'ljallangan.

Umuman olganda, Qo'qon universiteti tomonidan ishlab chiqilgan "Mehmonxona va turizmni boshqarish" ta'lim yo'nalishlarining davlat ta'lim talablari va o'quv rejalari o'rnatilgan tartibda tasdiqlanishi va amaliyotga tatbiq etilishini mumkin, deb hisoblaymiz.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
"Turizm va servis" kafedrası mudiri
i.f.n., dotsent:



M.Amonboev

